

EL SEVGAN SAN'ATKOR (NABI RAHIMOV IJODIGA BIR NAZAR)

Dildora Aliyeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek san'atining buyuk darg'alaridan biri, iste'dodli aktyor, o'zbek teatr san'atining rivojiga o'zining katta hissasini qo'shgan san'at arbobi, Xalq artisti Nabi Rahimovning sermazmun hayot yo'li, serqirra ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Zero, iste'dodli aktyorlar o'lmaydi, ular o'z rollarida yashaydilar.

Kalit so'zlar: san'atkor, aktyor, teatr, sahna, rol, obraz, epizod, aktyorlik mahorati, personaj, tomoshabin

FAVORITE ARTIST (A GLANCE AT NABI RAHIMOV'S CREATION)

Dildora Aliyeva

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: In this article, one of the greatest figures of Uzbek art, a talented actor, an artist who made a great contribution to the development of Uzbek theater art, People's Artist Nabi Rahimov, has a rich life. He gave information about the artist's creative activities. After all, talented actors do not die, they live in their roles.

Keywords: artist, actor, theater, stage, role, image, episode, acting, character, audience

Nabi Rahimov. Bu san'atkorni bilmagan, tanimagan, uning ijrosidan savqlanmagan kishi bo'lmas kerak. Chunki Nabi Rahimov o'zbek teatr va kino san'atida o'zining rang-barang rollari bilan barchani lol qoldirgan usta san'at darg'alaridandir. O'zining ijodiy faoliyati davomida turfa xil obrazlarni maromiga yetkazib, har bir rolga bor mehrini bera olgan san'atkorning ma'naviy merosi o'zbek san'atida zalvorli o'rin tutadi.

Nabi Rahimov o'zbek teatr va kino san'ati tarixida o'z o'rnini va o'z maktabiga ega bo'lgan ustoz san'atkordir.

Nabi Rahimov 1911-yil 7-noyabrda Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida tavallud topgan. Aktyor bolaligida, turli uy buyumlarini tamirlovchi otasiga yordamlashib yuradi. Uning bolalik yillari og'ir qiyinchilik yillariga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, Nabi Rahimov o'sha vaqtda Qo'qonda Hamza Hakimzoda tomonidan tashkil etilgan drama truppasi tomoshalarini ko'rib, san'atga bo'lgan

qiziqishi ortadi. Natijada 15 yoshidan boshlab esa Qo‘qon shahridagi badiiy havaskorlik to‘garagiga qatnasha boshlaydi.

Nabi Rahimov 1926 va 1929 yillar oralig‘ida Qo‘qon shahridagi kichik teatr jamosida ishlaydi. Dastlab teatr truppasida kichik epizodli rollarni ijro etadi. Keyinchalik esa professional teatrga kirib kelishiga xalq artisti, hajviyachi Mirshohid Miroqilov sababchi bo‘ladi. U teatrdagi aktyorlik mahoratini o‘stirishda A.Hidoyatov, S. Eshonto‘raeva, Sh. Qayumov kabi ustoz san’atkorlardan dastlab katta saboq oladi.

1929-1930-yillar Hamza nomidagi teatrga bir guruh qibiliyatli yoshlar kirib keldi. Olim Xo‘jayev, Quadrat Xo‘jayev, G‘ani A‘zamov, Muhsin Hamidov, Shukur Burxonov, Nabi Rahimov shular jumlasidandir. Muhimi shundaki, ular tez orada teatr asoschilari bo‘lmish birinchi avlod bilan uyg‘unlashib, teatrning tom ma‘nodagi ijodkor aktyorlariga aylandilar hamda birgalikda o‘zbek aktyorlik maktabi poydevorini yaratdilar.

Nabi Rahimov o‘sha yillari bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan ko‘plab rollarni muvaffaqiyat bilan o‘ynaydi. K.Gossining “Malikayi Turandot” asaridagi Kalaf, F.Shillerning “Makr va muhabbat” asaridagi nodon Tofmarshal, A.Ostrovskiyning “Momoqaldiraq” dramasiidagi irodasiz Tixon, K.Yashinning “Tormor” pesasidagi Nurmat va boshqa bir qancha obrazlari shular jumlasidandir. Keyinroq, ya’ni 1930-yildan to umrining oxirigacha Hamza nomidagi O‘zbek milliy akademik drama teatrida faoliyat yuritadi. Nabi Rahimov ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi bo‘lib, u 1942 yilda frontga jo‘natiladi va 1943 yilda sog‘ omon uyga qaytadi. Urushdan qaytgach o‘zining aktyorlik faoliyati davom ettirgan. O‘sha yili Shekspir “Otello”sining Yago rolini ijro etadi. Bu rol unga katta shuhrat olib keldi.

Spektakl namoyishidan so‘ng Angliya parlamenti vakillari teatrning tomoshalari kitobida o‘z fikrlarini quyidagicha ifodalashgan: ”Hamza teatrida sahnalashtirilgan “Otello” spektaklini eng yaxshi deb hisobladik. Spektaklga Nabi Rahimov va Abror Hidoyatovlar o‘zgacha shukuh bag‘ishladilar. Ularga o‘zimizning hurmat va tahsinini bildiramiz.”

Nabi Rahimovning tajribasi – ham komediya, ham fojiviy rollarni birdan a‘lo darajada ijro etishidir. Aktyor ijro etgan har bir rol go‘yoki u uchun maxsus yozilganday, shuning uchun ham aktyor rolga butunlay kirishib ketadi. Nabi Rahimovning Xlestakovi (“Revizor” tomoshabinlar fikriga ko‘ra, eng yaxshi timsol hisoblanadi. “Meshchan” rovida Nabi Rahimovning qahramoni, mashinist Nil, tomoshabinlar oldida yuksak insoniy qadrga ega, samimiy inson sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy dramaturgiyadagi Qo‘ziyev (“Shohi so‘zana”), Marasul (“Og‘riq tishlar”), Bobo Kayfiy (“Mirzo Ulug‘bek”) va Urganji (“Inqilob tongi”) kabi obrazlari Nabi Rahimov yaratgan obrazlar ichida eng namunalisi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Nabi Rahimov ijodining yana bir ezgu xususiyati shundaki, u epizodik rollarni ham katta mahorat bilan o‘ynayveradi. Chunki aktyor uchun “katta”, “kichik” rollar

yo‘q. N.Rahimov ijrosidagi bu rollarni ko‘rib, tomoshabin obrazlarning butun tarjimai holini bilib oladi. Shuning uchun ham K.S.Stanislavskiy “Kichkina rollar bo‘lmaydi, faqat kichkina aktyorlar bo‘ladi” degan edi.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romani asosida ishlangan insseniroykadagi Shokir ota obrazi Nabi Rahimov ijro etgan ana shunday epizodik rollar jumlasiga kiradi.”¹

Aktyor o‘z faoliyati davomida 100 dan oshiq spektakl va filmlarda turli rollarni ijro etadi va shu orqali tomoshabinlarni e‘tiboriga tushib, ularni mehrini qozonadi. U tragediyalarda ham, dramalarda ham, komediyalarda ham muvaffaqiyat bilan rol o‘ynab, o‘sha roli ichida yashaydi.

Nabi Rahimov xarakterli va hajviy rollarni alohida muvaffaqiyat bilan o‘ynagan, lekin aktyor repertuarida dramatik fojiviy obrazlardan tortib, lirik qahramonlargacha mavjud. Uning sahna obrazlarida milliy xalq teatri an‘analari zamonaviy professional san‘at tajribasi bilan uyg‘unlashib ketgan. U yaratgan obrazlarda hozirjavoblik, o‘tkirso‘zlik, hazil va badihaga chapdaslik asosiy omil bo‘lib, yorqin milliy kolorit, yengil yumori, tashqi ko‘rinishining aniq ifodasi, mukammal ijrosi bilan ahamiyatlidir. Aktyor garchi o‘z faoliyatini komik va xarakterli aktyor sifatida boshlagan bo‘lsada, keyinchalik mavjud yo‘nalishlarning barchasidan eng yaxshi xususiyatlarni o‘zlashtirish va o‘z uslubiga singdirish yo‘lidan boradi.

“M.Karimning “Oy tutilgan tunda” spektaklda eng qiziqarli va kishini o‘ylantiradigan obrazlardan biri Nabi Rahimov o‘ynagan Darvesh rolidir. U ellik yil yer yuzini kezadi, hayot va odamlar ichida har bir narsaga diqqat bilan nazar tashlaydi, butun hayotini Xudoga sajda qilishga bag‘ishlab o‘tkazadi. Dahshatli adolatsizlik uning iymonini bo‘shashtiradi, dindan ozdiradi. Shafaqni ko‘rib, muhabbatning sehrgar tayoqchasi qalbiga tegib, insoniylik kuchi uyg‘onadi, ya‘ni kechagi avliyo muhabbatga band bo‘ladi. N.Raximov Darveshi birinchi pardada chindan ham avliyosifat, mehribon, har qanday gunohdan xoli, savob ishga o‘ch qilib ko‘rsatadi. U bora-bora o‘z qahramonining diniy ruhini bo‘shashtira boshlaydi. Yer quvonchini, yer yuzidagi baxtni, insoniy muhabbatni tushunadi. Aktyor ana shu maqsadga erishish uchun barcha vositalardan foydalanadi.”²

Teatr va kinodan tashqari u o‘zining betakror ovozi bilan yuzlab filmlar dublajida ham ishtirok etgan.

Aktyor haqida o‘zbek san‘atining buyuk namoyandalari o‘z ijobiy fikrlarini bildirgan. Jumladan, teatr arbobi M.Qodirov fikricha, “Nabi Rahimov - keng qirrali, palitrasi nihoyatda boy aktyor. U hajviy rollarda ham dramatik rollarda ham, tragik rollarda ham bir xilda muvaffaqiyat bilan o‘ynaydi, ijobiy yoki salbiy qahramonlar obrazini barobar mahorat bilan yaratadi, teatrda qanchalik mas‘uliyat va teranlik bilan

¹ I.Ilyalova. Nabi Rahimov. Toshkent, 1962. 32-bet.

² M.Rahmonov, M. To‘laxo‘jaeva, I. Muxtorov, O‘zbek milliy akademik teatri tarixi, Toshkent, 2003. 47-48-bet

o'ynasa, kinoda ham shu fazilatlarini namoyish qiladi, u yaratgan xilma-xil obrazlar bir-biridan o'tkir, erkin va zabardast."³

Aktyorning Bo'ribo'y ("Tog'a va jiyanlar"), Bobo Kayfiy ("Mirzo Ulug'bek"), Shokir ota ("Qutlug' qon"), Olbeni ("Qirol Lir") kabi 60-yillarda yaratgan obrazlari eng yaxshi psixologik kuchli rollardir. Keyingi yillar yaratgan Urganjiy ("Buxoro"), Sayd Karimov ("Komissiya"), Ota ("G'ariblar"), Sa'diyev ("O'n uchinchi rais") singari obrazlari ijtimoiy o'tkirligi, jisman sokin, ruhan jo'shqinligi, chuqur psixologik talqini bilan alohida e'tiborga molikdir. Urganjiy obrazi Nabi Rahimov ijrosidagi eng murakkab va barkamol obrazlardan biri. Aktyorning o'tkir ijrosi, murakkab ruhiy kechinmalarni yuzaga chiqarishi, bosiq ohanglar bilan juda katta ma'noga erishishi diqqatga sazovordir.

Ustoz san'atkor Nabi Rahimov ijodiy faoliyatida teatrdan tashqari kino san'atida ham ijro etilgan bir qator rang-barang rollari salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, Aliyev ("Stadionda uchrashamiz"), Turdiyev ("Maftuningman"), Choyxonachi ("41yil olmalari"), Bobo Kayfiy ("Ulug'bek yulduzi"), Shoqosim ("Qutlug' qon"), Usta Olim ("O'tgan kunlar"), Shoh ("Semurg'"), Safar bo'zchi ("Mehrobdan chayon"), Usta Boqi ("Kelinlar qo'zg'oloni") va boshqa obrazlari bilan kino oltin fondidan o'rin olgan. Shuningdek, videofilm va telespektakllarda ham suratga tushgan: "Kutlug' qon" (Yormat ota), "Diyonat" (prof. Shobaratov), "Hamma narsa odamlarga qoladi" (akad. Drozdov), "Bobur" (Muhammadjon) kabi obrazlar yaratgan.

Kino ijodkorlar tomonidan iste'dodli aktyor Hayoti va ijodiy faoliyati haqida "Nabi Rahimov hayotida ikki kun", "Uchrashuv" videocherklari ishlangan.

Nabi Rahimov faoliyati davomida, shuningdek, «O'zbekiston» radiosidagi «Tabassum» radioeshittirishda muallif va boshlovchisi sifatida ham bir necha yillar faoliyat olib borgan.

Serqirra bu ijodkor 1950-1965- yillar Toshkent teatr va rassomchilik san'ati oliygohida aktyorlik mahoratidan talabalarga saboq bergan. Nabi Rahimov ushbu oliygohda Obid Yunusov va Ergash Karimov kabi ko'plab aktyorlarga ustozlik qilgan. Nabi Rahimov san'at sohasidagi o'zining ko'p yillik xizmatlari uchun hukumatimiz tomonidan bir necha marta munosib taqdirlangan. Xususan, 1969-yili suratga olingan "41-yil olmalari" filmidagi keksa choyxonachi obrazi san'atkorga chinakam shuhrat keltirgan. Xuddi shu roli uchun Nabi Rahimov xalqaro kinofestivalning "eng yaxshi erkak roli uchun" mukofotiga sazovor bo'lgan. 1964 yilda «O'zbekiston xalq artisti» unvoni, o'limidan keyin 2008 yilda esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Nabi Rahimov o'zbek xalqining asl farzandi, badiiy madaniyatning yirik namoyondasi edi. Qanday rolda o'ynamasin, qanday obraz yaratmasin, o'z xalqining eng yaxshi fazilatlarini ulug'lashga, uning ideallarini, orzu-

³ M.Qodirov. Sahnamiz lochinlari. Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 145-bet.

armonlarini, quvon va nafratini izhor etishga harakat qiladi. Shu bilan birga Ustoz sifatida o‘z san’atini qanchadan-qancha yoshlarga o‘rgatib, singdirib keldi. Shu sababli ham Nabi Rahimov xalqimiz qalbida mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Ilyalova. Nabi Rahimov. Toshkent, 1962
2. M.Rahmonov, M. To‘laxo‘jayeva, I. Muxtorov, O‘zbek milliy akademik teatri tarixi, Toshkent, 2003.
3. M.Qodirov. Sahnamiz lochinlari. Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986
4. O.Rizayev. Nabi Rahimov. Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.
5. Sh.Rizayev. Sahna madaniyati, Toshkent, Ma’naviyat, 2000.
6. Кадирова, С. М. (2020, June). РЕПЕРТУАР УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА В ПЕРИОД ЗАРОЖДЕНИЯ. In The 10th International scientific and practical conference “Dynamics of the development of world science”(June 10-12, 2020) Perfect Publishing, Vancouver, Canada. 2020. 848 p. (p. 417).
7. Кадирова, С. М., & Кадирова, Д. М. (2020). ФОЛЬКЛОР И ЭТНОГРАФИЯ НА СЦЕНЕ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА. ВВК 87, 602.
8. Кадирова, С. М. (2020). Современное состояние театрального искусства в Узбекистане. Проблемы современной науки и образования, (7 (152)), 82-84.
9. Кадирова, С. М. (2020). THE CURRENT STATE OF THEATRICAL ART IN UZBEKISTAN. Проблемы современной науки и образования, (7), 82-84.
10. Кадирова, С. М. (2020). ЎЗБЕК ТЕАТРИДА КУЛГИ САНЪАТИ. Интернаука, (38-2), 27-28.
11. Кадирова, С. М. (2020). THE PROBLEMS OF EMBODYING ETHNOCULTURAL HERITAGE ON THE THEATER STAGE. In Colloquium-journal (No. 31-3, pp. 10-12). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.
12. Mukhsinovna, K. S. DEVELOPMENT TRENDS IN MODERN THEATRICAL ART OF UZBEKISTAN. European Journal of Humanities and, 17.
13. Кадирова, С. М. (2019). Узбекский театр военного периода. In Colloquium-journal (No. 26 (50), pp. 163-165). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.
14. F.Karomatli. O‘zbek xalqi cholg‘u musiqasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2004
15. KADIROVA, S. M., & KADIROVA, D. M. (2022). " GOLDEN WALL" OF THE NATIONAL THEATER OF UZBEKISTAN. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (1), 717-721.

16. Kadirova, S. M. (2021). СЦЕНИЧЕСКИЕ ПОИСКИ В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ. Theoretical & Applied Science, (3), 177-181.